



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING QARORI

2026-yil 17-aprel

N° 2119

**“Sudya tomonidan o‘zi, turmush o‘rtog‘i va voyaga yetmagan farzandlarining daromadlari, mol-mulki hamda mulkiy majburiyatlari to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq

### QAROR QILADI:

1. “Sudya tomonidan o‘zi, turmush o‘rtog‘i va voyaga yetmagan farzandlarining daromadlari, mol-mulki hamda mulkiy majburiyatlari to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. 2026-yil 1-iyulga qadar deklaratsiyani elektron axborot tizimi orqali taqdim etish tartibi joriy etilsin (X.Sadikov, R.Nazarov).
3. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov

**Sudya tomonidan o'zi, turmush o'rtog'i va voyaga yetmagan farzandlarining daromadlari, mol-mulki hamda mulkiy majburiyatlari to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish tartibi to'g'risida**  
**NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi sudyalari tomonidan o'zi, turmush o'rtog'i va voyaga yetmagan farzandlarining daromadlari, mol-mulki hamda mulkiy majburiyatlarini deklaratsiyalash sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**deklaratsiya** – mazkur Nizomda belgilangan tartibda deklaratsiya subyektining daromadlari va mol-mulklari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qaydnoma;

**deklaratsiya subyektlari** – sudya, uning turmush o'rtog'i va voyaga yetmagan farzandlari.

3. Deklaratsiya subyektini tomonidan lavozimni egallagan butun muddat davomida har yilning 1-yanvar kundan 1-aprel kuniga qadar yillik deklaratsiya taqdim qilinadi.

Yillik deklaratsiyada deklaratsiya subyektini tomonidan avvalgi kalendar yil davomida olingan daromadlar, shuningdek mol-mulk va boshqa deklaratsiya obyektlari avvalgi kalendar yilning 31-dekabr kuni holatiga ko'rsatiladi.

4. Deklaratsiya obyektlari deklaratsiya subyektini mol-mulki va daromadlaridan iborat.

**II. Deklaratsiyani tuzish va taqdim etish tartibi**

5. Sudya o'zi, turmush o'rtog'i va voyaga yetmagan farzandlarining daromadlari, mulk huquqi va ashyoviy huquq asosida egaligida bo'lgan mol-mulki, shu jumladan ko'chmas mulk va avtotransport vositalari, shuningdek mulkiy majburiyatlari to'g'risidagi deklaratsiyani (keyingi o'rinlarda - deklaratsiya) mazkur Nizomga ilovadagi shakl bo'yicha sudyalarning malaka hay'atiga taqdim etadi.

Ilk bor lavozimga tayinlangan sudyalar tayinlangan kundan boshlab bir oy muddat ichida deklaratsiya taqdim qilishlari lozim.

6. Deklaratsiyada deklaratsiya subyektining quyidagi ma'lumotlari aks ettiriladi:

- jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR);
- familiyasi, ismi, otasining ismi;
- tug'ilgan sanasi va joyi;
- fuqaroligi;
- doimiy yashash joyi va vaqtinchalik turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olish ma'lumotlari;
- mobil va xizmat telefon raqami;
- pochta va (yoki) elektron manzili;
- ish joyi, jumladan egallab turgan lavozimga tayinlangan sana;
- qo'shimcha faoliyati (ilmiy ishi, dars berishi, ijodiy faoliyati, tibbiy amaliyoti, tashkilotlarning boshqaruv, taftish, nazorat, kuzatuv organlaridagi ishtiroki va boshqa), agar bunday faoliyat daromad olish bilan bog'liq bo'lsa, lavozimga tayinlangan sanasi, tashkilot (ish beruvchi) to'g'risidagi ma'lumotlar;
- oxirgi uch yildagi ishlagan ish joyi (joylari) ko'rsatiladi.

7. Deklaratsiya subyektining mol-mulk(lar)i quyidagilardan iborat:

a) deklaratsiya subyektining ko'chmas mulk(lar)i (O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan mol-mulk bo'yicha davlat kadastr reyestri raqamini kiritish orqali) - u(lar)ning joylashgan joyi (manzili), maydoni, kadastr hujjatlari ma'lumotlari, mulkiy huquqlarning vujudga kelgan sanasi, kadastr qiymati va qonuniy asoslari haqidagi ma'lumotlar, foydalanish maqsadi;

b) mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkalari;

v) deklaratsiya subyektining transport vosita(lar)i (O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tgan transport vositalari bo'yicha avtomototransport vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning raqamini kiritish orqali) - u(lar)ning rusumi, ishlab chiqarilgan sanasi, qiymati, ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgisi ma'lumotlari, mulkiy huquqlarning vujudga kelgan sanasi va asoslari to'g'risidagi ma'lumotlar;

g) deklaratsiya subyektining qimmatli qog'ozlari (aksiyalardan tashqari) - qimmatli qog'ozlar emitenti, qimmatli qog'oz turi, xarid qilingan narxi va sanasi, ularning soni va nominal qiymati, agarda qimmatli qog'ozlar boshqa shaxs boshqaruviga berilgan bo'lsa, ushbu shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami;

d) deklaratsiya subyektiga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar ustav fondidagi aksiyalar (pay, ulushlar) - yuridik shaxs, uning jami aksiyalari soni (ustav fondi qiymati) va nominal qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar; ye) deklaratsiya subyekti haqiqiy egasi (benefitsiari) bo'lgan tashkilotlarning soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;

j) deklaratsiya subyektining milliy va (yoki) xorijiy valyutadagi pul mablag'lari - bank hisob raqamiga joylashtirilgan yoki bankda saqlanadigan mablag'lar (depozitlar), kredit tashkilotlaridagi badallar (depozitlar), qimmatbaho metallardan tayyorlangan quymalar, virtual aktivlar, jumladan elektron pullar, agar ularning miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravaridan oshsa, ular to'g'risidagi ma'lumotlar (jumladan, deklaratsiya subyektini nomiga ochilgan hisobvaraqlar, mol-mulki saqlanadigan bank va (yoki) boshqa moliyaviy muassasalar, shaxsiy seyfni ijaraga olish) deklaratsiyada har bir aktiv uchun alohida ko'rsatiladi;

z) qurilishi tugallanmagan obyektlar, foydalanishga qabul qilinmagan ko'chmas mulk obyektlari yoki belgilangan tartibda mulk huquqi ro'yxatdan o'tkazilmagan obyektlar, agar bunday obyekt deklaratsiya subyektiga tegishli bo'lsa, deklaratsiya subyektiga tegishli bo'lgan yer uchastkasida joylashgan bo'lsa yoki deklaratsiya subyektining mol-mulki hisobiga qurilgan bo'lsa;

i) deklaratsiya subyektini tomonidan belgilangan tartibda berilgan qarzlari, moliyaviy aktivga bo'lgan talab huquqlari, benefitsiar sifatida belgilangan sug'urta shartnomalari - talab huquqi tavsifi, qarz sifatida berilgan pul mablag'lari miqdori yoki talab huquqi (opsion) predmeti bo'lgan moliyaviy aktiv, qarz oluvchi yoki talab huquqi (opsion) berilgan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar sug'urta shartnomasi uchun shartnoma sanasi, o'zini sug'urta qiluvchi, sug'urta oluvchi, sug'urta to'lovlari miqdori ko'rsatiladi.

Qarz hajmi, talab qilish huquqi miqdori, opsion predmeti yoki sug'urta to'lovlari miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravaridan oshgan taqdirda, ma'lumotlar deklaratsiyaga kiritiladi.

**8.** Nizomning 7-bandida nazarda tutilgan obyektlarni deklaratsiya qilishda deklaratsiya subyektini ularga bo'lgan o'zining huquqiy munosabatini, ya'ni quyidagilarni ko'rsatishi shart:

a) mulk, doimiy egalik yoki foydalanish, umrbod meros qilib qoldiriladigan mulk;

b) umumiy mulk - hissali yoki birgalikda (mulkning barcha ishtirokchilari va ularning ulushlari ko'rsatilgan holda);

v) ijara, uzoq muddatli, vaqtinchalik foydalanish yoki boshqa foydalanish huquqi (mulk egasini ko'rsatgan holda);

g) oxirgi benefitsiar mulkdorligi to'g'risidagi ma'lumotlar.

**9.** Deklaratsiya subyektining daromadlari quyidagilardan iborat:

a) deklaratsiya subyektining asosiy va o'rindoshlik ish joyidagi mehnat haqlari, rag'batlantirish xususiyatidagi boshqa to'lovlar (pul mukofotlari, dam olish nafaqalari, sug'urta badallari, stipendiya, kompensatsiya to'lovlari, pensiyalar, ijtimoiy sug'urta nafaqalari, moddiy yordam, zararni qoplash bo'yicha to'lanadigan to'lovlar va boshqalar);

b) deklaratsiya subyekti yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan (jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini kiritish orqali), chorvachilik va qishloq xo'jaligi faoliyatidan olgan daromadlari;

v) deklaratsiya subyektining xususiy amaliyot (advokatlik, notariat, tibbiyot va boshqa) turlaridan olgan daromadlari;

g) deklaratsiya subyekti tomonidan qabul qilib olingan omonatlar yoki jamg'arib boriladigan badallar bo'yicha foiz daromadlari, meros, hadya, xayriyalar, ko'chmas va boshqa mulkni sotishdan tushgan daromadlar, agar shunday turdagi daromadlar bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravaridan oshsa;

d) deklaratsiya subyektining korporativ huquqlar asosida olgan daromadlari, dividendlari, haqiqiy egasi (benefitsiari) bo'lgan tashkilotlardan olgan daromadlari, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromad, ishonchli shaxsga berilgan mol-mulk bo'yicha ishonchli shaxsdan olingan daromad, qimmatli qog'ozlar yoki moliya vositalari bilan bo'ladigan operatsiyalardan tushadigan daromadi;

ye) deklaratsiya subyekti tomonidan olingan gonorarlar, pul mukofotlari, tavakkalchilikka asoslangan o'yinlardan olingan yutuqlar, moddiy foyda shaklidagi boshqa daromadlar, agar shunday turdagi daromadlar miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravaridan oshsa;

j) deklaratsiya subyekti tomonidan pul mablag'lari, moddiy qimmatliklar ko'rinishida olingan sovg'alar (jumladan boshqa shaxs tomonidan deklaratsiya subyekti yoki uning oila a'zosi manfaati yo'lida tovar va xizmatlarga to'lovni amalga oshirishi, qarzning hisobdan chiqarilishi, chegirmalar), agar bir martalik yoki bir manbadan jami olingan sovg'alar, pul ekvivalentidagi foydalar bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan oshsa, deklaratsiyaga kiritiladi;

z) deklaratsiya subyektining belgilangan tartibda olgan qarzlari va boshqa turdagi moliyaviy majburiyatlari (kredit, lizing, sug'urta, pensiya ta'minoti shartnomalari bo'yicha majburiyatlari, boshqalar) – majburiyat turi, qarz miqdori, hisobot davrining oxiri holatiga ko'ra, majburiyat qoldiqlari, majburiyatni to'lash bo'yicha yakuniy sana. Agarda shunday boshlang'ich majburiyatning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravaridan ortiq bo'lsa, ushbu to'g'risidagi ma'lumotlar deklaratsiyaga kiritiladi.

**10.** Deklaratsiyada ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va to'liqligi uchun javobgarlik deklaratsiyani taqdim etgan sudyaning zimmasiga yuklanadi.

### **III. Deklaratsiyani ko'rib chiqish va tekshirish tartibi**

**11.** Sudyalarning malaka hay'ati taqdim etilgan deklaratsiyalarni qabul qiladi, ularning to'liqligi va ishonchliligini o'n besh kun ichida ko'rib chiqadi, deklaratsiyalarni umumlashtiradi, tahlil qiladi va ular bo'yicha tegishli ma'lumotnoma tayyorlaydi.

**12.** Sudyalarning malaka hay'ati deklaratsiyalar hamda ular yuzasidan tayyorlangan umumlashtirilgan ma'lumotnomani Sudyalar oliy kengashiga uch kun muddat ichida kiritadi.

**13.** Sudyalar oliy kengashi taqdim etilgan deklaratsiyalar va ularga doir materiallarni ko'rib chiqadi hamda zarur hollarda qo'shimcha o'rganish o'tkazilishini tashkil etadi.

**14.** Deklaratsiyadagi ma'lumotlar bilan sudyaning daromadlari, mol-mulki yoki mulkiy majburiyatlari o'rtasida nomutanosiblik yoxud boshqa shubha tug'diruvchi holatlar aniqlangan taqdirda, bu haqda belgilangan tartibda chora ko'riladi.

**15.** Shubha tug'diruvchi holatlar deganda quyidagilar tushuniladi:

- hisobot yilida orttirilgan mol-mulk qiymati e'lon qilingan daromaddan ma'lum bir foizdan ortiq bo'lishi;

- bir yil ichida uch va undan ortiq ko'chmas mulk obyektini ro'yxatdan o'tkazish;

- avvalgi deklaratsiyadagi ma'lumotlar bilan jiddiy tafovut mavjudligi;

- noto'g'ri yoki to'liqsiz ma'lumot aniqlanganligi va boshqalar.

**16.** Sudyalarning malaka hay'ati deklaratsiyada ko'rsatilgan ma'lumotlarni aniqlashtirish maqsadida tegishli sudlar, davlat organlari va boshqa tashkilotlardan zarur hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab olishi, shuningdek ularni qo'shimcha o'rganishi mumkin.

**17.** Deklaratsiya faqat hisobot yili davomida olingan daromadlar, orttirilgan mol-mulk va yuzaga kelgan mulkiy majburiyatlar bo'yicha to'ldiriladi.

#### **IV. Yakuniy qoidalar**

**18.** Deklaratsiya va uni ko'rib chiqish bilan bog'liq materiallar sudyaning shaxsiy ish hujjatlari yig'majildida belgilangan tartibda saqlanadi.

**19.** Deklaratsiyadagi ma'lumotlarni noqonuniy ravishda oshkor etgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar.

**20.** Deklaratsiyani belgilangan muddatda taqdim etmaslik, shuningdek unga bila turib yolg'on yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlarni kiritish qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

QQL2836

Nizomga ilova

20\_\_ yil 1-yanvardan 20\_\_ yil 1-yanvarga qadar hisobot davrida  
daromadlar, mol-mulklar va mulkiy majburiyatlar haqida  
DEKLARATSIYA

QQL2836

T/r №	Ma'lumot kiritilayotgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi	Lavozimi (qarindoshligi)	Mulk huquqi va ashyoviy huquq asosida egalikdagi mulklar			Mulk huquqi va ashyoviy huquq asosida egaligida bo'lmagan, lekin foydalanishda bo'lgan ko'chmas mulklar			Avtotransport vositalari (turi, markasi)		Deklaratsiya qilingan yillik daromad (so'mda)	Ilmiy va pedagogik faoliyati-dan olingan daromadlar (so'mda)	Boshqa toifadagi daromad (so'mda)	Oldi-sotdi shartnomasi uchun olingan mablag'larning manbasi xaqida ma'lumot (xarid qilingan, sotilgan mulk turi, manbai)
			Mulk turi	Maydoni (kv.m) Miqdori	Qaysi viloyatda joylashgan	Ko'chmas mulk turi	maydoni (kv.m)	Qaysi viloyatda joylashgan	Egaligida bo'lgan transport	Egaligida bo'lmagan (ishonchnoma orqali)				
1	Sudyaning Familiya Ismi Sharifi (Nizomning 6-bandidagi ma'lumotlar)													
	Turmush o'rtog'i (Nizomning 6-bandidagi ma'lumotlar)													
	Voyaga yetmagan farzandi (Nizomning 6-bandidagi ma'lumotlar)													

QQL2836